

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Ukraina Vazirlar Mahkamasi  
o‘rtasida intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasida hamkorlik to‘g‘risida

**BITIM**

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Ukraina Vazirlar Mahkamasi, bundan keyin Tomonlar deb ataluvchilar,  
ikki davlat o‘rtasida iqtisod, savdo, fan, texnika va madaniyat sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun intellektual mulkni samarali muhofaza qilishning muximligini anglab,  
bunday hamkorlik uchun qulay sharoitlar yaratishni istab,  
intellektual mulk huquqini muhofaza qilish sohasida hamkorlikni tenglik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida kengaytirish zarurligini anglab,  
quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

**1-modda**

Ushbu Bitim maqsadlari uchun «intellektual mulk» atamasi Jahon intellektual mulk tashkilotini ta’ sis etuvchi 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda imzolangan Konvensiyaning 2-moddasida ko‘rsatilgan ma’ noda tushuniladi.

**2-modda**

1. Tomonlar o‘z milliy qonunchiligiga va Tomonlar qatnashchilari bo‘lgan xalqaro shartnoma va bitimlarga muvofiq boshqa Tomonning intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarini samarali muhofazasini ta’ minlaydilar.
2. O‘zbekiston Respublikasi va Ukraina a’zo bo‘lgan xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinmagan intellektual mulk huquqlari muhofazasiga tegishli masalalar bo‘yicha ushbu Bitim kuchga kirgan sanadan e’tiboran bir davlatning jismoniy va huquqiy shaxslari boshqa davlat xududida shu davlat qonunchiligiga muvofiq, o‘z jismoniy va huquqiy shaxslariga .

**3-modda**

Ushbu Bitimning maqsadi Tomonlarning intellektual mulk huquqlarini samarali muhofazasini ta’ minlash yo‘li bilan iqtisod, savdo, fan, texnologiya va madaniyat sohasida hamkorligini yanada kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat.

Tomonlarning hamkorligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarning muhofazasi bilan bog‘lik masalalarni muvofiklashtirish va ikki Tomonning tegishli idora va tashkilotlari o‘rtasida mualliflik huquqlari va unga turdosh huquqlarning muhofazasi, shuningdek sanoat mulki obyektlariga bo‘lgan huquqlarning muhofazasi kabi soqalarda hamkorlik qilish to‘g‘risida aniq bitimlar tuzishga ko‘maklashish;

huquqiy axborotlar, shuningdek ularni intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasida qo‘llash tajribasi to‘g‘risidagi axborot bilan almashish;

intellektual mulk sohasida savodsizlikni tugatish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish tajribasi haqidagi axborot bilan almashish;

o‘quv, uslubiy va mahsus adabiyotlar bilan almashish;

intellektual mulk huquqlarining muhofazasi sohasida mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasb malakasini oshirish, shu sohada tajriba bilan almashish;

xalqaro hamkorlik tajribalari va Tomonlardan har birining intellektual mulk huquqlarini muhofazasi bo‘yicha ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalarda qatnashishi, shuningdek bu shartnomalar bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarish to‘g‘risidagi axborot bilan almashish;

ikki Tomon o'rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikning ahvoli to'g'risidagi axborot bilan almashish;  
intellektual mulk huquqlarning muhofazasi masalalari bo'yicha ko'rgazma, seminar va yig'ilishlar tashkil etish;  
hamkorlikning Tomonlar o'zaro kelishib olgan boshqa shakllari.

#### **4-modda**

Tomonlarning vakolatli organlari o'rtasida tuziladigan iqtisod, sanoat, fan, texnika, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik to'g'risidagi bitimlarga kirgan intellektual mulk berilgan huquqlar va imtiyozlardan foydalanadilar huquqlarning muhofazasi to'g'risidagi nizomlari ushbu Bitimga zid bo'lmasligi kerak.

#### **5-modda**

Tomonlar intellektual mulk sohasida huquqbuzarlikning oldini olish uchun har birining amaldagi milliy qonunchiligiga va ikkala Tomon qatnashgan xalqaro shartnoma va bitimlarga muvofiq, jinoiy, fuqaro-huquqiy va ma'muriy choralarni ko'radilar.

#### **6-modda**

Agar ikki tomonlama hamkorlik natijasida mahfiylikni saqlash lozim bo'lgan intellektual mulk obyektlarini yaratish yoki foydalanish yoki mahfiy axborot berish mo'ljallangan bo'lsa, tegishli shartnoma yoki bitimlarga mahfiylikni saqlash to'g'risida qoida kiritiladi. Bu hollarda Tomonlarning tegishli tashkilotlari o'z davlatlarining qonunchilik nizomlariga, shuningdek shartnoma va bitimlarda berilgan qoidalarga asosanib, mahfiylikni saqlash bo'yicha majburiyatlarni bajaradilar.

#### **7-modda**

Ushbu Bitimni amalga oshirish uchun quyidagi vakolatli organlar mas'uldirlar:

O'zbekiston Respublikasida - O'zbekiston Respublikasi fan va texnika davlat qo'mitasi qoshidagi Davlat patent idorasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqlari bo'yicha davlat agentligi;

Ukrainada - Ukraina Davlat patent idorasi, shuningdek Ukraina Mualliflik va turdosh huquqlari bo'yicha davlat agentligi.

Tegishli tashkilotlarning hamkorlik shartlari va tartiblari ular o'rtasidagi alohida bitimlar bilan aniqlanadi.

#### **8-modda**

Tomonlar ushbu Bitimni amalga oshirish chog'ida bir-birlariga yo'llaydigan hujjatlar rus tilida taqdim etiladi.

#### **9-modda**

Ushbu Bitimga Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Barcha o'zgartish va qo'shimchalar ushbu Bitimning ajralmas qismi bo'lgan alohida protokollar bilan rasmiylashtiriladi.

#### **10-modda**

HUshbu Bitim Tomonlar tarafidan uni kuchga kirish uchun davlatlar ichki protseduralari bajarganligi to'g'risida oxirgi yozma bildirishnoma olingan kundan 30 kun keyin kuchga kiradi.

Ushbu Bitim un yil muddatga tuziladi va agarda Tomonlardan biri navbatdagi muddat tugamasidan kamida olti oy avval diplomatik kanallar orqali uning amal qilishini to'xtatish niyati haqida boshqa Tomonga xabar bermasa uning amal qilishi o'z-o'zidan keyingi ikki yillik davrlarga uzaytiriladi.

Kiyev shahrida 1998 yil 19 fevralda ikki nusxada, har biri o'zbek, ukrain va rus tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega.

Ushbu Bitim qoidalarini izohlash uchun rus tilidagi matndan foydalaniladi.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Hukumati tomonidan**

**Ukraina Respublikasi**  
**Hukumati tomonidan**